

## OLIV TA'LIM TUSHUNCHASI VA UNING YANGICHA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI

**Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich**

Qo'qon davlat pedagogika instituti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası, v.b.dotsenti, p.f.d (PhD)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada oliy ta'lim tizimi tushunchasi, joriy etish xususiyatlari va uning yangicha nazariy-kontseptual asoslari o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, milliy dastur, ta'lim mazmunini milliyashtirish, oliy ta'lim, texnologiya, kommunikatsiya.*

Oliy ta'limdagi siyosiy islohotlarning asosi hisoblangan jamiyat taraqqiyoti, yoshlarning kelajagi, barchaga teng imkoniyatlar ochish g'oyasini amaliy hayotga tadbiq etishning siyosiy yechimiga erishishga intilish shakllangan edi. «O'lkada millatning dardli og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongli hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etadigan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllangan edi». Bugungi O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi mamlakatning o'z taqdirini o'zi belgilash, ichki va tashqi siyosatini mustaqil amalga oshirish, milliy qonunchilikni yaratish va takomillashtirib borish, taraqqiy etishning yangi, milliy mentalitetga mos yo'lini qidirib topish imkoniyatini berdi. O'zbekiston barcha sohalardagi islohotlar, yangilanishlarning amaliy ifodasini kadrlar salohiyatida deb belgiladi va ta'limni isloh qilishning asosiy me'zoni qilib insonning jamiyatdagi o'z o'rniga ega bo'la

Bu butunlay yangicha mazmun kasb etdi, ya'ni mustaqillikning ilk yillarida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning joriy qilinishi bugungi kunda oliy ta'limdagi islohotlarning mazmun-mohiyatini o'rganish ta'lim tizimi, uning mazmuni

butunlay yangicha ma'no kasb etganligini tasdiqlaydi. Jahonda oliy ta'limning bir qancha, ya'ni ingliz-saks, Rossiya, AQSH, Yaponiya, Koreya va boshqa modellari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ma'no-mazmunga ega. Ularning o'ziga xos jihatlarni o'rganish asosida va bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimidagi siyosiy islohotlarning huquqiy asoslarini yaratish arafasida O'zbekiston uchun o'ziga xos, jamiyat uchun foydali bo'lgan yangi model yaratildi. Mustaqillik tufayli O'zbekistonning mamlakat miqyosida ta'lim sohasini, xususan oliy ta'limni isloh etishda, uning nazariy va kontseptual asoslarini yangicha g'oyalar, kontseptsiya va tamoyillar asosida amalga oshirishning strategik dasturlarini ishlab chiqishga alohida e'tiborni qaratdi.

Mamlakatimizda Oliy ta'limni isloh etish bo'yicha davlat siyosatini: avvalo 1991-2020 yilgacha hamda 2020 yildan shu kungacha bo'lgan davrlarga bo'lib qarash mumkin. O'zbekiston mustaqilligining ilk yillarida, ya'ni 1991-2020 yillarda jamiyatda ta'limni rivojlantirishga, uning ustuvorligini ta'minlashga hali yetarli darajada shart-sharoitlar mavjud emas va shuning uchun ham ta'limning eng muhim elementlarini saqlab qolish dolzarb masala edi. Buning uchun ancha foydaliroq bo'lgan tenglashtirilgan strategiya tanlandiki, u nafaqat talab va ehtiyojlarni qondirishi, balki, ijtimoiy organ sifatida ta'limni yangilashni ko'ndalang qo'ydi. Mazkur masala yuzasidan Butunjahon Bankining ma'lumotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning ma'lumotlarida keltirilishicha, sobiq Sovet davlati tarkibidan ajralib chiqqan mustaqil davlatlarda o'tish davrining boshida keng tarqalgan muammo ishlab chiqarish va byudjetning keskin tushib ketishi hamda uning natijasida ta'lim sifatining yomonlashuviga olib kelganligidir. Bu davrda o'qituvchilarning real ish haqining kamayishi, ta'limning hayotiy zarur vositalari — o'quv materiallari, ya'ni ta'limni qo'llab-quvvatlovchi va izchilligini ta'minlovchi o'quv-materiallarining keskin qisqarganligini ham ko'ramiz. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar, ta'lim olayotgan, hamda o'z qiziqishlari bo'yicha muayyan mutaxassislik turlarini tanlagan yoshlar oldida yangi vazifalar va talablarni qo'yadi. Bu oliy ta'lim muassasalarida aniq kasb yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan yoshlarning ham ong va dunyoqarashidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Birinchidan, oliy ta'lim bosqichida bilim

olayotgan yoshlarni o'z tanlagan kasblari bo'yicha chiqur bilim olishi, ta'limga bugun mamlakatni demokratlashtirish, modernizatsiyalash va yangilanish bilan bog'liq maqsad, vazifalardan kelib chiqib munosabatda bo'lish lozim. Ikkinchidan, fan va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha uning milliy madaniy negizlarini, shuningdek, dunyo fani erishgan yutuqlarni tadbiq eta olish ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishlari maqsadga muvofiq. Uchinchidan, ta'lim va tarbiyada milliylik va umuminsoniylik uyg'unligiga erishish uchun, yoshlar bu holatni ta'limdagi uzluksizlik tamoyili bilan bog'lagan holda amalga oshirishda alohida fidoyilik namunalari ko'rsatishlari talab etiladi. Bu erkin va farovon hayot qurish bilan uzviy bog'liq.

Hozirgi kunda ta'lim munosabatlari bilan ishlab chiqarishning integratsiyalashuvining quyidagi shakllari mavjud: o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari; ishlab chiqarishda oliy o'quv yurtlari kafedralari filiallari ishlab chiqarishdan ajaralmagan holda kadrlar tayyorlash; xo'jalik shartnomasi asosida ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari; ta'lim muassasalariga homiylik yordami singari printsiplarda namoyon bo'ladi.

Mazkur so'z yakunida quyidagi xulosalarni berish mumkin: Birinchidan, mustaqillik tufayli O'zbekistonning oliy ta'lim sohasi yangi nazariy, kontseptual asosga ega bo'ldi va o'ziga-xos tizimga o'tildi. Ikkinchidan, oliy ta'lim to'g'risidagi g'oya va qarashlarda, mustabid tuzum davrida amal qilingan, yagona mafkuraviy g'oyalardan, sinfiylik va partiyaviylik tamoyillaridan xalos bo'lindi, oliy ta'limda yangi milliy g'oyaga asoslangan ta'lim-tarbiya amalga oshiriladigan bo'ldi. Uchinchidan, oliy ta'lim sohasi mamlakat iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlovchi muhim ijtimoiy, siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'g'in hisoblandi. To'rtinchidan, oliy ta'lim sohasini isloh qilish orqali uni tubdan o'zgartirish, ya'ni ta'limni o'zgartirish amalga oshirilib, uning funksiyasi jamiyat uchun foydali tomonga yo'naltirildi. Beshinchidan, oliy ta'lim sohasi ikki bosqichda amalga oshiriladigan bo'ldi hamda dunyoda mazkur sohada mavjud tajribani milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda amalga oshirilayotganligi o'zining natijasini berishi shubhasiz. Oltinchidan, oliy ta'lim siyosatining muvaffaqiyati orqali

ta'limning integratsiyalashuvi amalga oshib, u orqali jamiyat va davlatning oliy ta'lim sohasining boshqa davlatlarning ijobiy tomonlari bilan yaqinlashuviga erishildi. Yosh mutaxassis kadrlar tayyorlashda ularning xorijda ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratildi. Yettinchidan, oliy ta'limning yangilanishi orqali insonning jamiyatdagi o'rni, uning huquq va erkinliklari, siyosiy jihatdan madaniyatga erishuvi sodir bo'ladi. Zero, barcha normativ-huquqiy hujjatlardan tortib, ta'limning mazmunigacha aynan o'sha maqsadga qaratilgan erkin shaxsni, mustaqil fikrga ega bo'lgan, fidoi va vatanparvar, xalqparvar kadrlarga jamiyat muxtojligini oliy ta'lim turi o'zida chuqur xis qilishi va siyosiy faoliyatini shunga yo'naltirishi mustaqillikni mustahkamlash, asrab-avaylash bilan uzviy bog'liq. Sakkizinchidan, yuqori malakali mutaxassis deganda nafaqat yuqori sifatlar, balki, bag'rikeng, o'zaro hurmat va tushunush ruhi bilan yo'g'rilgan, siyosiy irodasi kuchli inson ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ular mamlakat istiqbolini, taraqqiyotini kafolatlaydigan qatlamdir. Bugun oliy ta'limdagi siyosiy islohotlar tufayli qaror topayotgan yangicha kontseptual g'oyalar va qarashlar yangi ma'naviy muhitni shakllantiradi. Mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni, ilm-fan asosida qura oladigan, mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirishga g'oyaviy, nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.